

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI
BOSHLANG'ICH TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

“Himoya qilishga tavsiya beraman”
Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi
fakul'teti dekani

-----dots.Rabbimov M.T.

-----2013 y

5141600- Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi STI yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun

*“Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga ta'lim berishda ona tili
darslarida multimedia vositalaridan foydalanish*

”

mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: Jo'rayeva SH.

Ilmiy rahbar: dots.Uzmanov

Ishni himoyaga tavsiya etaman:

dots.Uzmanov
(ilmiy rahbar ismi va sharifi) -----
(imzo)

BMI Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti
kafedrası yig'ilishining qarori bilan (Qaror
№ ---- ,-----2013 y) himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: f.f.d.prof. U.A.Jumanazarov
(ismi va sharifi)

(imzo)

JIZZAX-2013

Mundarija

Kirish	3
1 Bob. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni tarbiyalashda dars jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish asoslari	6
1.1.Multimedia tushunchasi va uning mohiyati	6
1.2. Ta'lim jarayonida multimedia vositalarini qo'llash	12
2-Bob. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida multimedia texnologisi asosida mashg'ulotlar o'tkazish metodikasi	21
2.1. Alifbe darsida harflarni o'rgatish metodikasi	21
2.2. Boshlang'ich sinf ona tili mashg'ulotlarida didaktik o'yinlarni multimedia texnologiyasi asosida tashkil etish	30
Xulosa	42
Adabiyotlar ro'yxati	44

Kirish

O'zbekistonning kelajagi ko'p jihatdan barkamol va intellektual salohiyatli avlodni tarbiyalashga bog'liq. Bu muhim vazifani amalga oshirish uchun o'z Vataniga, xalqiga, istiqlol g'oyalariga sadoqatli, erkin va mustaqil fikrlaydigan yosh avlodni komil insonlar sifatida voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu borada *milliy g'oya* yosh avlodni ma'naviy barkamol inson etib tarbiyalashda yetakchi g'oya bo'lib xizmat qiladi. Shuning bilan birga ta'lim tizimidagi tub islohotlar kichik maktab yoshidagi (1-4-sinf) o'quvchilarini ma'naviy jihatdan tarbiyalashda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asos bo'lib, bu borada Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "bu dastur hayotda o'z fikriga, o'zining qarashlari va qat'iy grajdanlik pozitsiyasiga ega bo'lgan, har tomonlama yetuk va mustaqil fikrlaydigan shaxsni shakllantirishni maqsad qilib qo'yadi"¹ Qolaversa ta'lim-tarbiya jarayonida eng so'nggi texnologiyalardan foydalanish zarur bo'lib turibdi.

O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da boshlang'ich ta'lim – uzluksiz ta'lim tizimining dastlabki savod o'rgatish turi ekanligi alohida ta'kidlangan. Aynan shu dasturning 4.9-moddasida "barcha bosqichlardagi ta'lim jarayonlarini kompyuterlashtirish va axborotlashtirish amalga oshiriladi" deb, belgilangan².

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimiz Konstitusiyasi qabul qilinganligining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida ta'kidlanganidek, "Ta'lim sohasida zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari, Internet tizimi, raqamli va keng formatli telekommunikasiyalarning zamonaviy usullarini o'zlashtirish, bugungi taraqqiyot darajasini belgilab

beradigan bunday ilg'or yutuqlar nafaqat maktab, lisey va kollejlarda, oliy o'quv yurtlariga, balki har qaysi oila hayotiga keng kirib borishi uchun zamin

¹ Karimov I.A. Yuksak salohiyatli avlodni tarbiyalash – eng muqaddas maqsad. Toshkentda 16-17-fevral kunlari bo'lib o'tgan xalqaro konferentsiyada so'zlagan nutq // Xalq so'zi gazetasi, 2012. 18-fevral.

² O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq, 1998. –b. 57.

tug'dirishning ahamiyatini chuqur anglab olishimiz lozim"³. Bu fikrlar maktabning boshlang'ich ta'lim tizimiga ham taalluqlidir.

Prezident Islom Karimovning 2009 – yilning asosiy yakunlari va 2010 - yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasidagi “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish” nomli ma'ruzasida farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balqi ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, XXI asr talablariga javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga yetkazish uchun barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganligini alohida qayd etib o'tilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 – yil 23-maydagi “2001 – 2005 – yillarda kompyuter va axborot texnologiyalarni rivojlantirish, “Internet”ning xalqaro axborot tizimlariga keng kirib borishini ta'minlash dasturini ishlab chiqish, tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi va Vazirlar Mahkamasining “2002 – 2010 - yillarga mo'ljallangan o'rta ta'lim tizimini axborotlashtirish dasturi” to'g'risidagi qarorlari bu borada amalga oshiriladigan ishlarning mazmuni, ko'lami va yo'nalishini belgilab berdi. Shu asosda Xalq ta'limi vazirligining 2011-yil 9-iyundagi Buyrug'iga asosan 2-4-sinflarda maktab ixtiyoridagi soatlar hisobidan haftasiga bir soatdan informatika darslarini tashkil etish belgilab berildi. Buning uchun boshlang'ich ta'limda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish tizimini ishlab chiqish, ularning kompyuter savodxonligini oshirishga qaratilgan informatika ta'limini boshlang'ich sinflardan o'rganish lozimligini anglatadi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarning psixologik xususiyatlari va o'zlashtirish darajasini hisobga olib, o'quvchilar tomonidan oson o'zlashtiriladigan tushunchalar majmuasini ishlab chiqish, pedagogik dasturlarni yaratish, didaktik hamda informatikaga oid mashqlar tizimini ishlab chiqish zarur bo'ladi.

³O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan “O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatni barpo etishda mustahkam poydevordir” mavzusidagi ma'ruzasi || Xalq so'zi gazetasi, 2009. 6-dekabr.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni tarbiyalash, ularning faoliyatini shakllantirish zaruriyati ta'lim jarayonida so'nggi texnologiyalardan biri-bu *multimedia vositalaridan*, ya'ni elektron darsliklar, kompakt disklar, video-audio kassetalardan foydalanishdir. Ushbu o'quv metodik qo'llanmada ana shu masala yoritib berildi.

O'quv metodik qo'llanmani tayyorlashda maslahatlari bilan yordam bergan hamkasblarimizga minnatdorchilik bildiramiz.

1 Bob. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni tarbiyalashda dars jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish asoslari

1.1.Multimedia tushunchasi va uning mohiyati

Inson tarbiyasida maktab ta'limining ahamiyati kattadir. Prezidentimiz ma'ruzasida ta'kidlaganidek, "mamlakatni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish ustuvor maqsadimiz", degan mulohazalaridan barkamol avlodni tarbiyalash, ularni har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri ekanligini unutmasligimiz kerak. Shu sababli maktab degan ulug' dargohning inson va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi va ta'sirini nafaqat yoshlarimiz balki butun xalqimiz kelaajagani ham hal qiladigan o'qituvchi va murabbiylar mehnatini hyech narsa bilan o'lchab qiyoslab bo'lmaydi.

Ma'lumki, har bir shaxsning ma'naviy kamoloti unda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining mazmuni shakl va metodlariga bog'liqdir. Shu boisdan ta'lim-tarbiya jarayonini pedagogik talqin qilish, uning samarali kechishini ta'minlash zarurati yuzaga keldi. Prezidentimiz tomonidan milliy, o'ziga xos yondashuv tarzi belgilab berildi. "Ta'lim – O'zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchanlik, faollikni baxsh etadi. O'sib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o'tadi. Yoshlar, ularning iqtidorligi va bilim olishga chanqoqligidan ta'lim va ma'naviyatni tushunib yetish boshlanadi"⁴. Buning uchun kichik maktab yoshidagi (1-4 sinflar) o'quvchilarini tarbiyalashda ta'limning zamonaviy axborot texnologiyalaridan ham unumli foydalanish, kompyuter savodxonligini shakllantirish, Internet bo'yicha ilk elementar tushunchalar berish lozim bo'ladi. Ana shunday texnologiyalaridan biri *multimedia* vositalaridir. *Multimedia* vositasini ta'lim sohasiga tatbiq etish uchun uning elektron manbalarini ishlab chiqish zarurati tug'iladi. Bunday ta'lim manbalariga elektron darosliklar, qshllanmalar, metodik ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar, Internet materiallari, axborot-resurs markazlari kiradi.

⁴ Karimov I.A.Istiqlol va ma'naviyat. T.: O'zbekiston, 1994. –b. 9.

Multimedia vositasining bir qancha ta'riflari mavjud, ularning ayrimlarini keltiramiz. Jumladan, multimedia - (inglizcha-yunoncha multimedia - o'rta vositalar) bu –axborot informasiya uzatishning xilma-xil vositalarini qamrab oluvchi texnologiya bo'lib, unda muayyan dasturlar va vositalar mavjud bo'ladi. Multimediaga ega kompyuterlar odatda kuchli videotizmga, vadeomagnitafon va videokameralarni ko'rish imkoniyatiga, tasvirni ushlash va axborotlarni rangli grafika, ovozlarning chiqishi va sintezlashgan musiqalar kabi turli ko'rinishlari bilan ishlash imkoniyatidir⁵.

Multimedia texnologiyasi – informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animasiya (obyektlarning fazodagi harakati) samaralari asosida o'quv materiallarini tarbiyalanuvchilarga yetkazib berishning mo'ljallangan ko'rinishidagi texnologiyasidir.

Multimedia – bu maxsus texnologiya bo'lib, dasturiy va texnik moddiy ta'minot asosida kompyuterda bir vaqtning o'zida matnli, tasviriy axborotni tovushli va harakatli holda ifodalash imkoniyatidir.


Multimedia – kompyuter tizimida matn, tovush, videotasvirni va turli animasiyalarni mujassamlashtirish imkonini beruvchi zamonaviy axborotlar texnologiyasidir.

Multimedia vositalariga multimedia vositalarini yaratishda foydalanadigan audiokolonka, mikrofon, videoproyektor, Veb kamera, TV tuner kabi uskunalar, dasturlar va amalda foydalanishga mo'ljallangan materiallar kiradi.

Multimedia vositalari pedagogik nuqtai nazaridan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim-tarbiyasi jarayoniga tatbiq etilishida kompyuter asosida yangicha yondashuv hisoblanadi. Kompyuterli texnologiyalar o'quvchilarning faolligini oshirishda, o'rganiladigan o'quv materiallarining hajmini ko'paytirishda va ta'lim jarayonining samaradorlik darajasini oshirishda muhim vosita sifatida amalga oshirilmoqda. Unda kompyuter monitoriga qarab ekranda ko'rsatiladigan materiallardan foydalanib bilim olish, kompyuter savodxonligini shakllantirish,

⁵ Hasanboev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. –T.: Fan va texnologiya. 2009. 348-b.

ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Multimediali kompyuterli texnologiyada ko'rgazmali vositadan tashqari ta'lim beradigan manba sifatida qaraladi. Chunki o'rganiladigan materiallar oldindan kompyuter xotirasiga joylashtirilgan bo'ladi. O'qituvchi qaysi mavzuni o'quvchilarga o'rgatmoqchi bo'lsa, kerakli ma'lumotlarni monitor ekraniga chaqirib oladi va namoyish etiladigan materiallar bilan o'quvchilarni tanishtiradi. Shu asosda ular mavzu yuzasidan namoyish etilgan materiallarni o'rganib boradilar. Bunda o'quvchilar kompyuter bilan yetarli darajada qo'nikma hosil qiladi. Shu bilan birga kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning kompyuterdan foydalanish jarayonida tafakkuri rivojlanadi, bilim olishga qiziqishi ortadi va dunyoqarashi kengayib boradi. Multimedia texnologiyasining ta'lim-tarbiya jarayonidagi samaradorligini quyidagi shaklda ifodalash mumkin:



Multimediadagi matn qisqa, tushunarli va aniq bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi uni nafaqat o'qish, balki yod olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ovoz o'qish yoki turli vositalar tovushdan iborat bo'ladi. Bunda ovozning jalb qilish xususiyatiga, ya'ni intonatsiyali, musiqali yoki hayajonli bo'lishi katta ahamiyatga ega. Jonli harakat odam, narsalar yoki predmetlarning xatti-harakatidan tashkil topadi. Undagi yagona talab-jonli harakatlarning tarbiyaviy va estetik xususiyatiga ega bo'lishidir. Grafik tasvirlar muayyan mavzuni tasavvur qilish uchun hosil qilinadi. Bu hol xotirani mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Multimedia vositalaridan o'qitish jarayonida foydalanish o'qitish sifatini va samarasini oshirishning eng qulay usullaridan biri bo'lishiga qaramasdan, unga mos Dasturlar bo'lmasa yoki ulardan foydalanilmasa kutilgan samarani bermaydi. Shuning tuchun har bir o'quv fanining xususiyatidan kelib chiqib, o'quv materialining asosiy va muhim elementlarining o'quvchilar o'zlashtirish jarayoniga mos kelishi, dastur vositalari ekrandagi tasvirlarning rangiga, ma'lumotlarning tuzilishiga, obyektlarning ko'rinishiga, tovushlarning qulayligini e'tiborga olishni nazarda tutadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun kompyuter muhitida ishlashni ta'minlovchi va ularning bilim hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda "Ona tili", "Odabnoma", "O'qish kitobi"dagi materiallar, atrofdagi olam bilan tanishtirish, modellashtirishning turli-tuman faoliyat turlari orqali algoritmlash, faoliyat usullarini o'zlashtirish bilan amalga oshiriladi. Multimedia vositalari yordamida olib borilgan dars o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishini va bilim olish saviyasini oshiradi.

Multimedia vositalari o'quvchiga yakka tartibda yondashish imkonini beradi. O'qituvchining bevosita ishtirokisiz ham o'quvchi materialni o'zlashtirishi mumkin bo'ladi.

Hozirda multimedia kundalik faoliyatimizda juda ko'p ishlatilmoqda. Ta'lim-tarbiya sohasida multimedia texnologiyalarini tatbiq etish uchun yuqorida berilgan fikrlarini umumlashtirib multimediaga shunday ta'rif berish mumkin. *Multimedia*-bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari yordamida axborotning an'anaviy va original turlari asosida o'quv materiallarini tinglovchilarga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko'rinishidir.



Multimedia xozirda juda tez rivojlanayotgan zamonaviy axborot texnologiyalardan bo'lib, u quyidagi xususiyatlarga ega:

- * An'anaviy axborot turlarini: matn, jadval, turli xil bezaklar hamda orginal axborot turlarini: nutq, musiqa, telekadrlar, videofilmlardan parchalar, lavhalar, animasiya ko'rinishidagi axborotlarni o'z ichiga oladi.

- * Video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy prottessorning harakatchanligini, ma'lumotlarni uzatish shinasining o'tkazish qobiliyatini, tezkor video va xotira hajmini, katta sig'imli tashqi xotirani, kompyuter kirish - chiqish kanallari bo'yicha almashinuv tezligini taxminan ikki barobar oshirish talab etiladi;

- * "inson-kompyuter-inson" interaktiv muloqotining yangi darajasining ta'minlanishi, muloqot jarayonida foydalanishda ancha keng va har tomonlama axborotlarni olishga ega bo'lish.

Hozirgi amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, multimedia vositalari yordamida ta'lim sohasida o'quvchilarni o'qitish ikki baravar samarali bo'lmoqda. Ma'lumki, eshitgan materialning to'rtidan bir qismi xotirada qoladigan bo'lsa, o'quvchilarga berilayotgan materiallarni video orqali amalga oshirsak, axborotni xotirada saqlanib qolishi va tasavvur qilish imkoniyati 35-70 % gacha oshadi. Shuningdek, mazkur o'quv dasturlar audio video va grafika ko'rinishida mujassamlashtirilgan holatda

o'quvchilarga berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 70-95 % ga oshishi kuzatimoqda.

Ta'lim sohasida multimedia vositalari yordamida o'quvchilarga bilim berish afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Ta'lim jarayonida berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyatining mavjudligi;
- Ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqining yanada oshishi;
- Dars jarayonida bilim olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoniyatiga erishilishi;
- Olingan bilimlarning kishi xotirasida uzoq muddat saqlab qolishi va uni amaliyotda qo'llash mumkinligi.

Multimediani ta'lim jarayoniga qo'llashning ayrim muammolari ham mavjud, jumladan:

- * Ta'lim uchun zarur bo'lgan o'quv materiallarini hamda boshqa zaruriy ko'rsatmalarni qo'llanma shaklida o'quv kom'pyuter dasturlari ko'rinishida ishlab chiqish;
- * Ishlab chiqilgan o'quv kom'pyuter dasturlari uchun multimedia elementlarini qo'llash.

Multimediali o'quv materiallarini ishlab chiqishda hozirdan Respublikamizda ma'lum bir ishlar qilinmoqda. Bunga yetakchi mutaxassislar jalb qilingan va o'quv materialari ta'lim yunalishlari bo'yicha yaratilmoqda. Multimedia texnologiyalarini ta'limda qo'llash uchun quyidagi texnik ta'minot zarurdir:

- Kamida 80486 mikroprosessorli shaxsiy kompyuter;
- Mikroprosessorning taqiddli chastotasi 66 MGs bo'lishi kerak;
- Operativ xotira 4 Mg bo'lishi kerak;
- Vinchestrning xajmi 400MB bo'lishi kerak;
- 3.5 dyumli disk yurituvchisi;
- 2 tugmati "sichqon" tipidagi manipulator;
- 101 tugmali klaviatura va DIN standarti bo'yicha ulash uchun bo'linma;

- 640x 480 peksel (256 rang bo'lganda) yoki 800x600 peksel (16 rang bo'lganda) grafik rejimini ta'minlay oluvchi VGA tipidagi diskli va adabetr;
- Kompakt disklar uchun SD ROM qurilmasi;
- Kamida parallel ikkita yo'nalishli 1 ta interfeys;
- Shaxsiy kompyuterga ulash mumkin bo'lgan bo'sh telefon yo'nalishi yoki ovoz kuchaytirgich;
- Kirish va chiqish MIDI porti;
- MPK (Multimedia Personal Kompyuter) bilan mos keluvchi audiadapter.

Qayd etilgan talablar multimedia ilovalarini ishlatish imkonini beradi.

Video yoki audio multimedia vositalarini kompyuterda juda ko'p dasturlar orqali ishlatiladi. Video, audio bila ishlovchi dasturlar qatoriga, jumladan Vindovs Media Player, Winamp va boshqalar kiradi. Vindovs Media Player dasturini ishlatishni ko'rib o'tamiz. Vindovs o'rnatilgan barcha kompyuterlarda Vindovs Media Player dasturi Vindovs bilan birgalikda o'rnatilgan bo'ladi. Vindovs Media Player dasturini ishga tushirish uchun Vindovsning Pusk tugmasi bosiladi, so'ngra bosh menyudagi Programme menyu ostidan Standarti qismga kiriladi va Vindovs Media Player ishlatiladi.

1.2. Ta'lim jarayonida multimedia vositalarini qo'llash

O'zbekiston milliy ta'lim-tarbiya jarayonida multimedia vositalarini qo'llash tajribasi shakllanib bormoqda. Negaki bu ayni vaqtda zamon talabidir.

Taraqqiy etib borayotgan informatsion vositalar jamiyatimizda ijtimoiy rivojlanishining asosini belgilovchi an'anaviy imkoniyatlar bilan bir qatorda insonlarning qobiliyati, tashabbuskorligi, ishga ijodiy yondashishi, intellektual faoliyati, mustaqil ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini takomillashtirishi kabi omillar tashkil etadi. Katta hajmdagi ma'lumotni saqlash, uzatish, qabul qilish bilan bog'liq axborot yaratish jarayoni inson faoliyatini turli soxalarida kompyuter texnologiyalarini rivojlantirishlarini ko'zda tutadi.

Inson tafakkuri shu qadar taraqqiy etib bormoqdaki, bunda texnikalashtirish va kompyuterlashtirish jarayoni nafaqat ishlab chiqarishning turli soxalari, balki madaniyat va ta'lim soxalariga ham dadil kirib bormoqda. Kompyuter texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi ta'lim jarayonini yangi bosqichga ko'tardi. Bu o'z o'rnida ta'lim mazmunini, metod va shakllarini qayta ko'rib chiqish uchun yangi bilim hamda ko'nikmalar bilan yanada boyitish zaruriyatini tug'dirdi.

Bugungi kunda jamiyatimizning turli sohalarida faoliyat ko'rsatuvchi mutaxassislarning professionallik darajasi ularning kompyuter texnologiyalarini egallaganligi bilan ham belgilanadi. Bu hol zamon talabiga aylanib qoldi. Mazkur talabga javob berish uchun mutaxassislarni tayyorlash jarayonida, ya'ni ta'lim muassasalarida yetarli baza yaratilishi kerak.

Hozirgi vaqtda ta'lim muassasalarida yangi pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslarini yaratish, ularni tasniflash, metodik ahamiyatini belgilash kabi dolzarb muammolar ustida ish olib borilmoqda. Yangi pedagogik texnologiyalar deganda, an'anaviy va noananaviy metodlar bilan bir qatorda ta'limni kompyuterlashtirish ham tushuniladi. Shu manoda tobora shakllanib borayotgan kompyuter-axborot madaniyati axborotni yetkazish va qabul qilishda yangi munosabatlarni vujudga keltiradi, fikrlashning yangi turini xosil qiladi. Bunda inson inofrmation koinot

bilan o'zaro muloqotga kirishadi. Telekommunikasiya (telefon, televideniye, radio) tarmoqlarining kompyuter tarmoqlari bilan birikishi yagona jahon axborot makonini-multimediani tashkil etadi. Ushbu makonning eng muhim qismi Internet tarmog'i ayniqsa uning giper-media xizmatlari (Vorld-Vide Veb), gipermediapochta, videokonferensiyalardir.

Multimedia ("ko'p muhitlik" degan ma'noni bildiradi)-zamonaviy axborotlar texnologiyasi bo'lib, kompleks tushunchani anglatadi. Multimedia axborotning turli ko'rinishlari-matn, jadval, grafika, nutq, animatsia, multiplikatsiya), video tasvir, musiqa yordamida axborotni yig'ish, saqlash, qayta ishash va uzatish vazifalarini bajaradi. Multimedia "mnson-kompyuter" interaktiv (diologig) muloqotning yangi, takomillashgan pog'onasi bo'lib, unda foydalanuvchi juda keng va har tomonlama axborot oladi. Multimedia vositalaridan xordiq chiqarish, ta'lim olish va reklama kabi sohalarda foydalaniladi. Multimedia vositalari asosida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga ta'lim berish xozirgi kunning dolzarb masalalaridandir.

Ta'lim jarayonida multimedia vositalarini qo'llash pedagogik va psixologik nuqtai nazardan juda katta ahmiyatga ega. Unda beriladigan material chuqurroq o'zlashtiriladi, vaqtni tejash imkoniyatiga erishiladi, olingan malumot kishi xotirasida uzoq vaqt saqlanadi, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning passiv tinglovchi sifatida ishtirok etishi qisqarib, izlanuvchanlik va bilish faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan multimedia dasturlari tadbiq etiladi, ta'lim jarayoniga badiiylik kiritiladi. Boshqacha qilib aytganda, multimedia ta'limning emotsional-estetik ta'sirlanish, maqsadga intilish, tadqiqotchilik kabi motivlarni faolashtiradi. Ma'lumki, ta'lim oluvchi birinchi marta eshitgan mavzusining faqat to'rtdan bir qismini, ko'rgan materiallarining esa uchdan bir qisminigina eslab qoladi; ham ko'rib, ham eshitsa axborotning ellik foizini yodda saqlaydi. Interaktiv multimedia texnologiyalaridan foydalanganda esa bu ko'rsatkich 75 % tashkil etadi.

Shu bois katta hajmdagi axborotni qabul qilish, tushunish hamda voqyeylikka nisbatan faol va ma'suliyatli munosabatni tarbiyalashning psixofiziologik va estetik

xususiyatlarini hisobga oluvchi multimedia nazariyasini hususan multimedia pedagogikasini yaratishga intilish kerak.

Multimediani qo'llash uchun quyidagi texnik vositalar kerak bo'ladi: kompyuter, lazer disklarni o'qiydigan SD ROM qurilmasi, SI-ovoz xaritasi, AS faol kolonka, SD- kompakt disk eng zamonaviy kompyuterlarda yuqoridagi qurilmalarning ba'zilar kompyuter ichiga joylashtiriladi.

Ta'lim jarayonida multimediani qo'llashda o'qituvchiga hozircha dasturlovchi mutaxassis yaqindan yordam berishi kerak. Dastur tuzuvchilar tomonidan rus va chet tillarni tez va oson o'rganishga yordam beruvchi dasturlar ishlab chiqilgan. Biroq o'zbek tilini o'rganish bo'yicha deyarli dasturlar mavjud emas. O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalari uchun DTS yaratilgan, o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalar tatbiq qilinmoqda va davlat tiliga katta e'tibor berilmoqda. Ammo o'zbek tilini o'rganish bo'yicha mukammal multimedia dasturlari ishlab chiqilgan emas. Bunda o'zbek tilini o'qitish bo'yicha multimedia dasturlarini tuzish bir qator moddiy qiyinchiliklar bilan bog'liq. Biroq hajmi uncha katta bo'lmagan (masalan, darsning 10-15 minutiga mo'ljallangan) oddiy vositalar va bir dona shaxsiy kompyuterlar foydalanadigan multimedia dasturining ssenarisini yozishga urinib ko'rish metodist va boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun dolzarb muammo va ayni vaqtda qiziqarli mashg'ulot bo'lishi kerak.

Umuman olganda, ta'lim tizimida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning quyidagi usullari mavjud:

1. Multimedia darsligi.
2. Bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash bo'yicha topshiriqlar to'plami keltirilgan metodik tavsiyalar.
3. O'rganilayotgan mavzular bo'yicha nazariy bilimlar boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan qanday darajada o'zlashtirilayotganini tekshirishga mo'ljallangan test dasturi.
4. Bir tildan ikkinchiga yoki bir alifbodan ikkinchisiga o'tirish;
5. Elektron virtual kutubxona;

6. Har bir talaba usun amaliy topshiriqlarni tayyorlash va bosib chiqarish dasturi;

7.Distant uslubida o'qitish, ya'ni o'qituvchi va o'quvchilar ma'lum masofada joylashgan holda ta'lim berish tizimi.

8. Internet tarmog'iga ulangan multimedia kompyuterlari.

9. Printer(topshiriqlarini tayyorlash va test natijalarini chiqarish uchun).

10.Kompyuter ulangan proyektor yoki aqdim etish texnologiyasi.

Quyida biz shu usullardan biri, kompyuterlashgan darslarning eng oddiy turi mashg'ulotni taqdim etish texnologiyasi yordamida, ya'ni ko'rgazma sifatida o'tkazish haqida to'xtalmoqchimiz.

Bu usulda dars o'tkazish uchun o'qituvchiga ovoz xaritasi va kolonkasi mavjud bo'lgan kompyuter, multimedia proyektori va MS Power Point 97 dasturi yordamida o'tilajak dars uchun kompyuterda slaydlar yaratiladi. Slaydlar ma'lum mavzuni yorituvchi matn, rasm, lug'at, grammatik qoidalar bilan bog'liq bo'lgan jadvallar, animatsiya effektlari, o'zlashtirish darajasini tekshirish uchun testlar, ovoz, video rolik va hokazolardan tashkil topadi. Ular muayyan mantiqiy ketma-ketlikda biriktiriladi. Slaydlarni almashtirishning vaqti (interval) belgilanadi. O'qituvchi tasvirni ko'radi, eshitadi.

Bunday dars o'tishning texnik jihatdan ikki usuli mavjud:

1-usul. Kompyuter tarmog'i bor bo'lsa har bir o'quvchi o'z monitorida ko'radi;

2-usul. Multimedia texnologiyasi asosidagi dars namunasini .

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun ta'lim muassasasining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'zbek tili fanini tanladik. Darsni rejalashtirishda, slaydlar tayyorlashda quyidagi omillarga alohida e'tibor berishimiz kerak. Ta'lim muassasasida esa mavjud bilimlar faqat takomillashtiriladi, ya'ni lisoniy bilimlar o'zbek tilining til sohalari bo'yicha emas, balki yagona maqsadga yo'naltirilgan ravishda nutqiy ehtiyoj zaruriyatdan kelib chiqqan holda kompleks beriladi. Natijada o'quvchilarda mavzu bo'yicha o'z fikrini o'zbek tilida mustaqil ifoda eta olish ko'nimalarini yanada rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Misol uchun, rusiyzabon o'quvchilar bilan o'tilajak bir turkum darslarning umumiy sarlavhasi-"O'zbekiston Respublikasining siyosiy hayoti". Bu darsning mazmunini quyidagi mavzular orqali yoritish mumkin.

- 1.O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining ramzlari (davlat bayrog'i, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiya).
- 2.Mustaqil mamlakatimizning muhim siyosiy sanalari.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Parlamenti.
- 4.Mamlakatimizdagi siyosiy partiyalar va harakatlar.

1-slayd. Savollar: 1) Davlat ramziy belgilari tushunchasini izohlang. 2) O'zbekiston davlat mustaqilligining ramzlariga nimalar kiradi? O'quvchilar savollarga og'zaki javob beradi, o'qituvchi javobni baholaydi.

2-slayd. Sarlavha: O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i; O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'ining tasviri;Qisqa matn; Qiyin so'zlarning o'zbekcha-ruscha lug'ati. Davlat bayrog'i haqidagi matnda ot+sifat birikmasi ko'p qo'llaniladi. Ushbu birikmaning ona tilidagi grammatik xususiyatlari tubdan farq qiladi. Shuning uchun eslatma sifati mayda shriftda o'zbek tillaridagi ot+sifat birikmasining qisqa qiyosiy harakteristikasi berilishi mumkin.

3-slayd. Sarlavha: O'zbekiston Respublikasi davlat gerbi; gerb tasviri; matn; ushbu matnda gerbning har bir elementiga bkruvchi abzas boshida mazkur elementning tasviri keltiriladi; matn bo'yicha savollar.

4-slayd. Sarlavha: O'zbekiston Respublikasi madhiyasi; madhiya; uning mualliflari haqida qisqacha matn; madhiya matni; uning ijrosi. Madhiyani kompyuterda ijro etib bo'lingach faqat uning kuyi jaranglaydi. So'zini esa o'quvchilar kuylaydilar.

5-slayd. O'tilgan mavzu mustahkamlash uchun savollar (masalan Davlat ramziy belgilariga nimalar kiradi?) O'zbekiston Ruspublikasi davlat gerbi; davlat bayrog'i; madhiyasi; valyutasi qachon va kim tomonidan qabul qilingan yoki tasdiqlangan? Madhiya mualliflari kim? Hozirjavob o'quvchilar baholanadi.

6-slayd. Videotasvir (bunday videotasvirni O'zbekiston televideniyasining birinchi kanalida yozib olish mumkin).

O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi yangraydi. Uning fonida davlatimiz bayrog'ining turli mamlakatlarida bo'lib o'tadigan nufuzli anjuman va sport musobaqalarida ko'tarilishi, gerbning qo'llanilish o'rni, umuman, davlatimiz ramziy belgilarining dunyo miqyosida tanilib borishi haqidagi videolavha ko'rsatiladi. Ushbu slayd vatanparvarlik ruhida o'tkazilgan darsga yakun yasaydi.

Eslatma: 4 va 6-slaydlarni tayyorlashda dastur tuzuvchi qo'shiqlar ijro etish uchun qo'llaniladigan MR3 va video lavhani kompyuterda o'tkazish uchun qo'llaniladigan MR4 formatlaridan foydalanish mumkin.

Shu tariqa har bir mavzu yoki mavzular bo'yicha slaydlar yaratib, ko'rgazmalar paketini (majmuini) tayyorlab qo'yish va undan unumli foydalanish mumkin. Chunonchi grafik tasvir, jadval va diagrammalardan grammatik mavzuni yoritishda, ovoz yordamida talaffuzi qiyinroq bo'lgan so'zlarni o'rgatishda, animatsiya va video vositalaridan biror badiiy asarning parchasi ustida ishlashda sxema va fotosuratlardan o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytirish maqsadida foydalanish mumkin.

Slayd yaratishda quyidagilarga alohida e'tibor berish lozim: slaydlardagi matn, rasim, videolavha va boshqalar mantiqan o'zaro bog'liq bo'lishi, bir-birini to'ldirishi kerak; animatsiya, ovoz, video kabilar o'quvchilarni asosiy matndan chalg'itmasligi kerak. Ketma-ket kelgan slaydlarda bir xil emas balki, turli texnologik vositalardan, ayniqsa o'quvchini o'ylantirib qo'yadigan, izlanishga, mustaqil fikr yuritishga va o'z fikrini o'zbek tilida bayon etishga undaydigan usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuni aytib o'tish kerakki, taqdim etish axborot texnologiyasining samaradorligi asosan o'qituvchining fantaziyasiga, topqirligiga, pedagogik va aktyorlik mahoratiga bog'liq.

Multimedia vositalari asosida o'qitish jarayonini tashkil etish metodikasi an'anaviy o'qitish usulidan tubdan farqlanib, u boshlang'ich sinf o'qituvchilari va o'quvchilar uchun:

- o'quv materiallarini obrazlar ko'rinishida taqdim etish;
- o'qitishning differensial va individual holatda bo'lishi;
- o'qish va o'zlashtirish jarayonini baholab borish, teskari aloqa bog'lash;

- o'quv materialini o'zlashtirish jarayonida o'z-o'zini nazorat qilib borish va tuzatish;
- o'rganilayotgan mazularni namoyish etish va ularning o'zaro aloqadorligini kuzatish;
- boshlang'ich sinflarda o'tiladigan va o'zlashtiriladigan fan mavzularini animasiya, grafika, multiplikasiya, ovoz kabi kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv fanlarini o'zlashtirish uchun ko'nikmalar hosil qilish;
- o'quvchilarning mustaqil ishlashlari va mavzularni o'zlashtirishlari uchun yangi sharoit yaratish kabilar.

Bu boradagi olib boriladigan ishlar ta'lim-tarbiya tizimidagi zamonaviy axborot texnologiyalarining multimedia imkoniyatlarini ta'lim-tarbiya ishlarini tashkillashtirish va joriy qilish bilan bog'liqligi, ulardan maqsadli foydalanish ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga olib keladi. Bu jarayonlarda multimedia vositasi boshlang'ich sinfda o'rganiladigan har bir fanga tatbiq etish orqali bu fanlarning o'zlashtirish qamrovini oshiradi. Bundan tashqari, boshlang'ich ta'limdagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni axborot texnologiyalarining dasturiy vositalari asosida multimedia imkoniyatlaridan foydalanish orqali o'zlashtirish va o'rganish jarayoni ortib boradi. O'quvchilar kompyuter xotirasiga joylashtirilgan ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi fotosur'atlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish ssenariylari, bu yo'nalishdagi materiallarga tegishli tayanch iboralar, atamalar va tushunchalarning mazmuni bilan tanishib boradi hamda ulardan foydalanish ko'nikmasini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Multimedia quyidagi xususiyatlarga ega:

- axborot turlarini matn, jadval, turli xil bezaklar, nutq, musiqa, telekadrlar, videofilmdagi parchalar, animasiya ko'rinishidagi axborotlarni o'z ichiga oladi;
- turli xil axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy prsessorning harakatchanligini, ma'lumotlarni uzatishning o'tkazish qobiliyatini,

tezkor hajmli va katta sig'imli xotirani, kompyuter kanallari bo'yicha almashish tezligini taxminan ikki baravar oshirish talab etiladi;

- "o'quvchi-kompter-o'qituvchi" interaktiv muloqotning yangi darajasini ta'minlanishi, muloqot jarayonida o'quvchi ancha keng va har tomonlama axborotlarni olishi.

Demak, multimediali texnologiyada ta'lim jarayoni quyidagicha kechadi. Kompyuterga o'rganiladigan materialni kiritish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini fikrlashga undaydi, o'quvchilarning ta'lim materiallarini xotirada saqlash darajasini oshiradi. Shu bilan birgalikda ta'lim materiallariga qiziqishini orttirib borib, kompyuterda ishlash qobiliyatini o'stirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim muassasalarining zamonaviy jarayonida axborot texnologiyalaridan, jumladan, multimedia vositalaridan foydalanish quyidagi muhim muammolarni yechishda yordam beradi: Ta'lim jarayonini faollashtirish; o'quv faoliyatining samaradorligini oshirish; talabalarning mustaqil ravishda ishlash madaniyatini rivojlantirish; egallayotgan kasbiga ijodiy yondoshish ko'nikmasini hosil qilish; mustaqil ta'lim doirasini kengaytirish, xullas, yetuk mutaxxasislarni yetishtirish. Shu sababdan hozirgi paytda pedagog va dastur tuzuvchisi mutaxassislarning birlashib, turli fanlardan multimedia darsliklari yaratish ta'im samaradorligini oshirish uchun kutilgan natijalarni berishini unutmashimiz kerak.

2-Bob. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida multimedia texnologisi asosida mashg'ulotlar o'tkazish metodikasi

2.1. Alifbe darsida harflarni o'rgatish metodikasi

Uzluksiz ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida ta'lim-tarbiyani tashkil etish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil ishlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga qiziqish va ishtiyoqni oshiiradi. Ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Axborot texnologiyalarining tezkorlik bilan rivojlanishi o'quvchilarda kompyuter savodxonligini shakllantirishni taqozo etmoqda. Ushbu ishning maqsadlaridan biri boshlang'ich sinf o'quvchilarida kompyuter bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish muammolari va metodikasiga qaratilgan.

Ana shunday kompyuter texnologiyalarining dastlabkisi multimedia texnologiyasi hisoblanadi. Hozirgi kunda multimedia texnologiyasini boshlang'ich ta'limning barcha fanlarida foydalanish juda katta ijobty samara berishi ma'lumdir. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, multimedia texnologiyasi yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish ikki barobar bo'lmoqda.

Ta'lim sohasida multimedia texnologiyasi yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilariga bilim berish afzalliklari quyidagilardan iborat:

- ta'lim jarayonida berilayotgan tushuncha va ma'lumotlarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyatining mavjudligi;
- ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan a'loqa qilish ishtiyoqining yanada oshirilishi;
- o'quvchilarning dars jarayonida bilim olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;
- kompyuter texnologiyasi natijasida olingan bilimlar o'quvchilarning xotirasida uzoq muddat saqlanib qolishi va uni amaliy jihatdan qullay olish kabilar.

Boshlang'ich ta'limda multimedia texnologiyasining barcha fanlar kesimida keng ko'lamda qo'llanilishi natijasida ta'lim tizimining sifatiga ta'sir ko'rsatib, tushuncha va bilimlarni tezroq o'zlashtirishini ta'minlab beradi. Bunda kompyuter xotirasiga o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'lumotlar, o'quv materiallari, tushunchalar, qoidalar kiritilgan bo'lib, ularning elektron varianti ta'lim berishning manbai bo'lib xizmat qiladi.. Boshlang'ich ta'lim jarayonida multimedia texnologiyasi variantida texnologik yondashuvni to'g'ri tashkil qilish kerak bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili fanidan o'rganiladigan o'quv materiallarini osonlashtirish maqsadida o'quv materiallari bir-biri bilan bog'liq qismlarga aratiladi, so'ngra ta'limni o'zlashtirish samaradorligini oshirish uchun vazifalar ketma-ket bajarilishi rejalashtirilgan bo'ladi. Masalan, ona tilidagi *maktab* so'zi dastlab ikki bo'g'inga *mak-tab*, so'ngra tavushlarga *m*, *a*, *k*, *t*, *a*, *b* ajratiladi. Ushbu tavushlarning birikishidan *mak* birinchi bo'g'in, *tab* ikkinchi bo'g'in hosil bo'ladi va bu bo'g'inlar birikib *maktab* so'zi hosil qilinadi. Bu bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z boyligi oshib, nutqida *maktab* so'zining mazmun-mohiyatini, maktabning ta'lim beruvchi maskan ekanligi, o'quvchilar maktabda o'qish va tarbiya topadigan joy ekanligi to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi. Bunda monitor ekranida maktabning umumiy ko'rinishi, maktab atrofida gullarning ochilib turishi, xush kelibsiz, degan so'zning maktab peshtaxtasiga yozib qo'yilganligi, bolalarning maktabga sumkalarini ko'tarib borishlari monitor ekranida harakatlar bilan namoyish etilishi qiziqarli tarzda kechadi. Muhim tomoni shundan iboratki, ushbu texnologiyada o'rganilayotgan o'quv materiallari multimedia asosida bajariladi. Ta'lim berishning tushunarli bo'lishi uchun kompyuter xotirasiga kiritilgan o'quv materiallari kompyuter (manitor) ekranida namoyish etish asosida amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi buning uchun kompyuter bilan ishlash malakasiga ega bo'lishi kerak. Chunki, dars davomida mavzu yuzasidan beriladigan o'quv materiallarini ketma-ket monitor ekraniga chiqarib berishi, zarur vaqtlarda to'xtatib qo'yib o'quvchilarga tushuncha va izohlarini berib borishi taqozo etiladi. Buning uchun tanlangan o'quv materiallari murakkab bo'lmaligi, o'quvchilarning yoshiga mos

holda tanlanishi zarur. Bu boshlang'ich sinf o'quvchilarining olgan bilimlarini xotirasida uzoq vaqt saqlab qalish imkoniyatini yaratadi. Bu bilan o'quvchilarniyeng kompyuter bilan ishlashga ishtiyoqi ortib boradi. Multimedia texnologiyasi o'quvchilarning fikrlash kobiliyatini shakllantirish, tafakkurini o'stirish manbai bo'lib xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida multimedia vasitasidan foydalanishning asosini dars mashg'ulotlari tashkil etadi. O'quv mashg'ulotlari dalat ta'lim standartlari talablari asosida tuzilgan dasturlar, dasturlarda taqsimlangan soatlar asosida olib boriladi. Boshlang'ich sinflarda olib boriladigan mashg'ulotlar yangi materiallarni o'rganish darsi, bilimlarni mustahkamlash darsi, umumlashtiruvchi-takrorlash darsi, bilimlarning qanchalik o'zlashtirganligini tekshirish (baholash) darslariga bo'linadi. Mana shuni hisobga olgan o'qituvchi multimediali dars mashg'ulotini bir soatga mo'ljallangan reja asosida olib borishi kerak bo'ladi. Bunda yangi materiallarni o'rganishda multimedia kompyuter asosida olib borish texnologiyasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1) O'qituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarini kompyuter qarshisiga joylashtiradi (Kompyuter sinf xonasida kompyuterlar soni o'nta bo'lganligi uchun har bir kompyuter qarshisiga 2-3 tadan o'quvchilarni jaylashtiradi) .

2) Kompyuter xotirasiga joylashtirgan o'quv materiallarini alfavit va harflarni kompyuter ekraniga chiqaradi.

3) O'quvchilarning diqqati kompyuter ekranida chiqqan materiallarga qaratiladi.

4) O'quvchilarning qanday topshiriqlarni bajarishi uchun ular bilan savol-javob o'tkaziladi.

5) O'quvchilar o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni kompyuterda mustaqil bajarishga kirishadi.

6) O'quvchilarning o'rgangan o'quv materiallari savollar asosida mustahkamlanadi, buni yana bir bor kompyuterda bajarib mustahkamlaydi.

7) O'quvchilarning kompyuterda o'zlashtirgan bilimlari o'qituvchi tomonidan baholanib, rag'batlantirib boriladi.

8) O'rganilgan material bo'yicha mustaqil bajarib kelish uchun uyga vazifa beriladi.

Bu dars mashg'uloti to'liq kompyuter asosida o'tkazishga mo'ljallangan bo'lishi kerak. Olib borilayotgan bu mashg'ulotda mavzuga tegishli og'zaki savol-javoblar, topishmoqlar, sha'rlar, turli mazmundagi amaliy tadbirlar o'tkaziladi. Jumladan, o'quvchilarning zerikib qolmasligi uchun qisqa muddatli fizkultura mashqlari, ko'zning toliqib qolmasligi uchun ko'zni ochib yumish mashqlari o'tkaziladi. Buning uchun o'qituvchi mavzuning texnologik xaritasini to'zib olishi kerak. Mashg'ulotning texnologik xaritasida mavzu, maqsad va vazifalar, mashg'ulot jarayonining mazmuni, mashg'ulot jarayonini amalga oshirish texnologiyasi, natijalar va uyga vazifa aks etishi kerak. Buni jadvalda quyidagicha ifodalash mumkin:

1-mashg'ulot: Mavzu: O o unli tovushini talaffuz qilish va o'rganish

Bunda o'quvchilar O tovushini talaffuz qiladilar, uning aytilishini dars mashg'uloti davomida o'rganib boradi. Dars mashg'ulotining texnologik xaritasi.

Mavzu	“O” unli tovushini talaffuz qilish va uni o'rganish
--------------	--

Mashg'ulotning maqsadi: O'quvchilarda O tovushining aytilishi bo'yicha bilimlarni shakllantirish

Ta'limiy: O'quvchilarda O tovushi to'g'risida bilimlarga ega bo'lish.

Maqsad va	Tarbiyaviy: Kompyuterdan foydalanish madaniyatini shakllantirish.
------------------	--

vazifalar

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivajlantirish.

Vazifalar:

- o'quvchilarga O tovushini talaffuzini qilish, tovushining yozuvdagi belgisi harfni yozishga o'rgatish
- O tovushini talaffuz qilish va yozish bo'yicha ko'nikma va malaka hosil qilish

Multimedia vositalari yordamida kompyuter texnologiyasidan foydalanib o'quvchilarga O tovushini talaffuz qilishni, uning yozuvdagi belgisi harfni yozish o'rgatiladi. Bu jarayon kompyuter yordamida bajariladi, Elementar bilimi shakllantiriladi.

Mashg'ulotning mazmuni o'qish va yozish

Asosiy tushunchalar: tovush, harf, yozuv, kompyuterli mashg'ulot.

Uslub: kompyuterli ta'lim, savol-javob, ko'rgazmali ta'lim.

**Mashg'ulotni
amalga
oshirish
texnologiyasi**

Shakl: yakka va sinf bo'lib ishlash. O'qituvchi o'quvchilarni kompyuter qarshisiga taklif etadi va mashg'ulotni boshlaydi. Kompyuter xotirasiga kiritilgan va animasiya orqali berilgan ona, olmaxonni namoyish etadi va savol-javoborqali mashg'ulot davom ettiriladi. Masalan , Ona so'zi qaysi harf bilan boshlanadi. O'quvchilar O deb aytadi. Javob olingach olmaxonga o'tadi.

Vosita: O tovushiga oid ona, olmaxonga oid animasiyali multimedia vositasi (rasm, slayd, kompyuter).

Metod: namoyish etish, savol-javob, ko'gazmalilik.

Baholash: to'g'ri bajargan o'quvchilarni rag'batlantirish, besh ballik baho asosida baholash

O'qituvchi: kompyuter yordamida multimediali mashg'ulot o'tkazish orqali O tovushini talaffuz qilish va yozishni o'rganib, kutilgan natijaga erishdi. O'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi ortdi. Kompyuterdagi materiallar o'quvchilar diqqatini tortdi.

O'quvchilar: O tovushini talaffuz qilish va yozishni puxta puxta o'rganib oladi. Kompyuter savodxonligi shakllanib boradi. O'quvchilar mustaqil ravishda O

tovushini talaffuz qiladi va yozish mashqini bajaradi.

**Uyga
vazifa**

O'quvchilarga O harfining katta va kichik shakllarini yozib kelish vazifasi topshiriladi. Ona, olma so'zlaridagi o harfini alohida olib yozish va ularni talaffuz qilish hamda o harfi bilan boshlanadigan ikkita so'z topish vazifasi beriladi.

O'quvchilarning o'z fikr-mulohazalari va savollarini bayon etishi uchun ularga imkoniyat yaratish zarur. O'quvchilarga ko'rsatiladigan rasmlar, didaktik materiallar did bilan tanlanishi kerak. O'lar o'quvchilarning diqqatini tortib, qiziqtiradigan bo'lishi, ularning tasvirlanishi zavq bog'ishlab bajarishi kerak bo'ladi.

1. Kompyuter xotirasiga "Alifbe" darsligi, undagi rangli rasmlar, O tovushini talaffuz qilayotgan bola monitor ekranida harakatlanib, animasiya tarzida ko'rsatilib, O tovushining talaffuzi o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi. O tovushining unlilar sirasiga kirishi, talaffuzda o'pkadan chiqayotgan hova oqimi og'iz bo'shlig'ida hyech qanday to'siqqa uchramay chiqishi, shuning uchun uni cho'zib talaffuz qilishi aytiladi va o'qituvchi tomonidan talaffuz qilib ko'rsatiladi.

Bu tushuncha bevosita o'qituvchi yordamida O tovushini amaliy talaffuz qildirish asosida o'rgatiladi. Bunda O tovushining nisbatan cho'zib aytilishiga o'quvchilarning e'tibori qaratiladi.

Ona, oy, osh, olma, ovchi, olmaxon so'zlarini bo'g'inlarga bo'lib talaffuz qilish asosida bo'g'in va tovush munosabati, O tovushining o'ziga xos xususiyati haqida o'quvchilarda tushuncha hosil qilinadi va bu so'zlar hamda ona, oy, osh, olma, ovchi, olmaxonlarning rasmlari va ularning harakatlari kompyuter ekranida ko'rsatib boriladi.

2. Jonli so'zlar asosida o'quvchilarga har bir so'zning ma'nosi haqida tushuncha beriladi hamda ekranda rasvirlangan rasmlarining narsa yoki buyumga oid tarbiyaviy jihatlar singdiriladi. Masalan: "Ovchi" rasmi kompyuterda harakatga keltirilib, daryo yoki ko'lda uning baliq ovlayotgani, ovlagan baliqlarini savadga joylashtirganliklari ekranda ko'rsatiladi va shu bilan birga ovchilarning xizmati to'g'risida tushuncha beriladi. Lekin ov ongli ravishda amalga oshirilishi kerak. U tabiatga ziyon yetkazmasligi o'qituvchi tomonidan tushuntirib beriladi.

3. Baliq go'shti ko'pchilik sevib, tanovul qilinadigan taomlar sirasiga kiradi, u vitaminlarga boy. Kasal odamlarni tuzatishda baliq moyidan foydalaniladi. Lekin tabiatdagi juda ko'p jonivorlarni asrab-avaylashimiz har birimizning burchimiz ekanligi tushuntiriladi. Kompyuter ekranida olmaxonning harakatlanib yurishi, u o'rmonda daraxtdan-daraxtga sakrab o'ynashi, uning yong'oq chaqishlari jonli ko'rsatiladi. Shu rasm asosida o'qituvchi o'quvchilarga olmaxon tabiatda juda kam uchraydigan jonivor hisoblanishi, uni ov qilish qat'iyan man etilganligi tushuntiriladi.

4. Kompyuter monitorida ona, oy, osh, olma, ovchi, olmaxon so'zlari berilgan bo'lib, bu so'zlar tarkibidagi O tovushi qiziq rang bilan ifodalanganligi ko'rsatiladi. O'quvchilarga O tovushi qaysi rang bilan ifoda etilgan? so'rog'i beriladi (Qizil rang bilan). O tovushi katakchalarda berilgan so'zlarda qizil rang bilan ifodalanganligi e'tibor qaratiladi. Oy so'ziga diqqat qiling. O-oo-y qaysi tovush ajratib aytiladi? –O tovushi. Kompyuter monitoridagi katakcha nechta? Ikkita, demak, oy so'zida nechta tovush ishtirok etgan. Ikkita O va y tovushlari. Bu ikki tovushning birikishidan oy so'zi hosil bo'ladi. Shundan so'ng, kompyuter ekranida mavzuni mustahkamlash uchun savollar berilgan:

1. So'zlar qanday hosil bo'ladi?
2. Unli tovush deganda nimani tushunasiz?
3. Kompyuter ekranidagi katakchalarda berilgan so'zlarda o unli harfi qanday rangda ifoda etilgan?
4. "Quvnoq daqiqa" o'yini.

Oqib keladi jildirab,

Oyna kabi yaltirab.

Oqib kelgan oynani

Olish mumkin hovuchlab,

Topinglar-chi, bu nima ?

- Ariq to'la oyna, suv.

She'r topishmoq kompyuter monitorida suvning oqib kelishi, uning jildirashi ovoqli tarzda ifoda etilib, o'qituvchining qo'l harakati suvning oqish maromi va jildirashiga mos holda silkitib aytiladi. O'qituvchi ko'rsatgan harakatni o'quvchilar takrorlaydi.

5. O'quvchilarning O tovushi va harfiga oid bilimlari savolar yordamida tekshiriladi. O'qituvchi xulosasi yordamida dars yakunlanadi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning tafakkurining rivojlanishida, fikrlash doirasining kengayishida, so'z boyligini oshirishda, ularni faol harakatga keltirishda, mustaqil ishlash faoliyatini shakllantirishda multimediali texnologiyaning ahamiyati katta bo'lib, boshlang'ich sinf o'qituvchilari dars mashg'ulotlarini ko'proq multimediali vositalar asosida tashkil etishga e'tibor berishlari zarur.

2.2. Boshlang'ich sinf ona tili mashg'ulotlarida didaktik o'yinlarni multimedia texnologiyasi asosida tashkil etish


Bugungi kunda Respublikamizda Prezidentimiz rahbarligida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga katta e'tibor berilmoqdaki, inson o'z faoliyatida kompyuter texnologiyalarini o'zlashtirishda foydalanuvchi sifatida o'zini namoyon qilish shart bo'lib qolmoqda. Chunki insoning butun hayoti axborotni saqlash, uni qabul qilishdan iborat. Ammo inson miyasi qanchalik mukammal bo'lmasin, judakatta miqdordagi axborotlarning hammasini xotirasida saqlay olmaydi va kelajak avlodga to'liq yetkazib beraolmaydi. Shuning uchun axborot texnologiyalardan foydalanishga zaruriyat tug'iladi. Darhaqiqat, axborot texnologiyalari fan-texnikaning muvaffaqiyatli rivojlanishini ta'minlash, o'quvchilarning innovasiya va intellektual faoliyatini rivojlantirish asosini tashkil etadi. Shu jihatdan ham ta'lim va tarbiya jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirish uchun, avvalo, o'rgatish lozimligini keltirib chiqardi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarida kompyuter bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish zarur bo'ladi. Mazkur muamoni hal etish maqsadida Xalq ta'limi vazirligining 2011-yil 9-iyundagi "Umumta'lim maktablari uchun 2011-2012 o'quv yiliga mo'ljallangan o'quv rejani tasdiqlash to'g'risida" gi 123-sonli buyrug'ig'a ko'ra maktab ixtiyoridagi soatlar hisobidan 2-4-sinflarda informatika darslarini tashkil qilish ko'rsatilgan. Buyruqda ko'rsatilgan vazifalarni bajarish, ya'ni boshlang'ich ta'limda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish tizimini ishlab chiqish, o'quvchilarning kompyuter savodxonlik darajasini oshirish lozimligini anglatadi. Chunki, boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan bu fan axborot texnologiyalari bilan qurollanish yo'llarini o'rgata oladi. Hozirgi kunda kompyuter texnologiyasi yordamida hisoblash, yozish, o'qish, o'rganish, gapirish, chizish, maketlar tayyorlash, axborot qabul qilish, qayta ishlash, o'ynash mumkin. Shu jihatdan ham boshlang'ich sinflarda fanlarni o'qitishda multimedia vositasida tabiat hodisalarini namoyish qilishda, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishda, o'zlashtirish

darajasini aniqlashda foydalaniladi. Kompyuter har bir o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini, o'tiladigan fanlarning mazmunini hisobga olgan holda dars jarayonini axborotlashtirishga yordam beradi. Natijada pedagogik jarayon uchun zarur didaktik vasitalar, ularning metodik ta'minoti multimedia vositasida amalga oshiriladi. O'quvchilarning o'quv faoliyatini rivojlantirishda kompyuter xotirasiga kiritilgan turli didaktik o'yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar kompyuter xotirasidagi didaktik o'yin orqali o'z bilimlarini mukammallashtirib boradi. Shu jihatdan qaraganda, ta'lim jarayonida qo'llanadigan didaktik o'yinlarning roli beqiyosdir. Didaktik o'yinlar ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradi, o'quvchilar faolligini, ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Chunki, boshlang'ich sinf o'quvchilari multimedia vositasida berilgan o'yinlarni qiziqib bajaradi.

Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim jarayonida kompyuter muhim o'rin tutadi. 6-7 yoshli bolalar faoliyati kompyuter vositasida berilgan didaktik o'yinlar qiziqarli kechadi. Multimediali o'yin darslarida bolalar diqqati to'liq jalb etiladi, xotirasi, aqliy tafakkuri yaxshi ishlaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, kompyuterdagi didaktik o'yinlar qonun-qoidaga rioya qilgan holda tashkil etiladi. O'yinlarni o'tkazish mashg'ulot darzda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim jarayonida qo'llanadigan didaktik o'yinlarni olimlarimiz⁶ mazmuni va amalga oshirishiga ko'ra ikki turga ajratadi va uning chizmasini quyidagicha beradi:

⁶ G'afforova T., Nurillaeva Sh., Haydarova O. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar. Toshkent. 2004.14-b.



Biz ham olimlarimizning bu tasnifiga qo'shilamiz. Chunki, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning psixologik xususiyatlari va didaktik jihatlarini hisobga olib, o'yinlarning turiga ahamiyat berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Quyida ta'limiy amalga oshirish shakliga ko'ra "Harflarni top" o'yinidan foydalanamiz. Ushbu multimediali kompyuterli o'yinni amalga oshirish quyidagi qo'shimcha o'quv materiallari o'rganilib, mustahkamlandi: 1) geometrik shakllar (to'rt burchak); 2) ranglarni farqlash. Bu o'yinlar ham mashg'ulot tarzida amalga oshiriladi. O'qituvchi yordamida kompyuter monitorida ikki xil rangli to'rtburchakni o'quvchilar chiqaradi.



So'ngra o'qituvchi o'quvchilarga o'yinning maqsadi va vazifalarini, o'yin tartibi va qoidasi bilan tanishtiradi.

Didaktik o'yinning maqsadi: kompyuterli o'yin bilan tanishtirish, uning vazifasini belgilash va sichqoncha bilan ishlash malakasini hosil qilish. Bolalarga

to'rt burchak shaklini chizishni o'rgatish, to'rtburchak shakli ichiga harflarni joylashtirish ko'nikmasini hosil qilish.


O'yin tartibi: o'qituvchi o'quvchilarni birinchi to'rtburchak bilan tanishtiradi va bu to'rt burchakning rangiga e'tibor qaratiladi, keyingi to'rtburchakning rangiga e'tibor qaratilib nima uchun havorang bilan chizilganligi ta'kidlanadi va oxirgi turtburchakning qizil rang bilan chizilganligiga e'tibor qaratilib, nima uchun shunday qizilganligi aytiladi.

Vazifa: o'quvchilarga har bir to'rtburchakning ichiga kerakli harflarni joylashtirish, bu harflarni tovushlarga aylantirib to'g'ri talaffuz qilish, harflar birikishidan hosil bo'lgan so'zni to'g'ri o'qish va bundan a harfining qaysi katakchada joylashganligini aytib berish hamda buni sichqonchada bajarib ko'rsatish.

Mashg'ulotning borishi:

O'qituvchi o'quvchilarni kompyuter qarshisiga o'tqazadi va o'quvchilardan kompyuter ekranida nechta to'rtburchakni ko'rayapsan va ularning ichida qanday harflar joylashganligini so'raydi. Birinchi to'rtburchakda qanday harf borligini, unin talaffuz qilishni, u unli yoki undosh tovush ekanligini birinchi kompyuterda o'tirgan o'quvchidan so'raydi. Ikkinchi kompyuterda o'tirgan o'quvchidan ikkinchi to'rtburchak qanday rangda ekanligi, bu to'rtburchakning ichida qanday harf joylashganligi, u harf unli yoki undosh tovush ekanligini so'raydi. O'quvchi ikkinchi to'rtburchakning rangi havo rangda ekanligi , unda "n" tovushi joylashganligini, bu tovush undosh tovush ekanligini aytadi va "n" tovushini talaffuz qilib ko'rsatadi. Uchinchi o'quvchi uchinchi to'rtburchak qizil rangda ekanligi, bu to'rtburchakning ichida "a" tovushi joylashganligini, unli tovush ekanligini talaffuz qilib ko'rsatadi. Bu harflar birikib "ona" so'zi hosil bo'lganligini aytadi. Bu topshiriqlar bajarib bo'lgandan so'ng, o'qituvchi to'rtburchakda berilgan so'zlarni o'qiydi. O'quvchilar kompyuterda mustaqil ravishda topish lozim bo'lgan tovush o'rnini ikkinchi bir xildagi to'rtburchak bilan ko'rsatadi.

Yoki tovushlar tuzilishini chizib ko'rsatadilar:




Bu o'yindan o'qituvchi o'quvchilarning savodini chiqarishda samarali foydalanish mumkin. O'quvchilarning nutqini rivojlantirish maqsadida didaktik o'yinnin davom ettirish mumkin. Bunda oldin kompyuterda bajarmagan o'quvchilar bajarishadi.

1-variant: "A" tovushining o'rnini topish.

Ona, maktab, kitob, kino.

"Maktab" so'zida birinchi bo'g'inda "a" tovushi ikkinchi o'rinda to'ribdi, ikkinchi bo'g'inda ham ikkinchi o'rinda turibdi. O'qituvchi o'quvchilarni kompyuter qarshisiga o'tqazadi va ularga bajaradigan vazifalarini tushuntiradi. Vazifa shunday bo'ladi: Kompyuterdan foydalanib oltita to'rtburchak shaklini chizish, ikkinchi to'rtburchak shaklini qizil rangda berish, beshinchi to'rtburchakni ham qizil randa berish, bo'g'in ajratish belgisi bo'lgan chiziqchani chizish, chizilgan to'rtburchakning ichiga alfavitdan "m" harfini topib, to'rtburchak ichiga joylashtirish, ikkinchi katakcha ichiga alfavitdan "a" unli tovushi topib, uni joylashtirish, uchinchi to'rtburchakka alfavitdan "k" harfi toptirib, joylashtiriladi. Uchala to'rtburchak ichida harflar joylashtirib bo'lgandan keyin ikkinchi bo'g'inga taalluqli bo'lgan to'rtburchaklar ichiga kerakli bo'lgan harflarni alfavitdan topib joylashtirish topshirig'i beriladi. O'quvchilar to'rtinchi to'rtburchak ichiga alfavitdan "t" harfini, beshinchi to'rtburchak ichiga "a" harfini, oltinchi to'rtburchak ichiga "b" harfini topib, joylashtiriladi. O'qituvchi o'quvchilarning diqqatini ikkinchi va beshinchi to'rtburchakka qaratadi. Bu to'rtburchaklar qizil rangda berilgan, chunki, bu to'rtburchaklarning ichiga "a" unli harfi joylashtiriladi. Bu unli tovush bo'g'in hosi qiladi. Shuning uchun u alohida rangda berilganligini tushuntiradi. O'quvchilar to'rtburchakning ichida "maktab" so'zi hosil bo'lganligini ko'radi va bu so'zni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatiladi. To'rtburchaklar kompyuter ekranida quyidagicha chiziladi:





“Kino”, “kitob” soʻzlarida “A” tovushi qatnashmagan. Shuning uchun bu soʻzlarda “a” tovushi ishtirok emayotganligi oʻquvchilarga tushuntiriladi.

2-variant: “T” undosh tovushining oʻrnini topish.

Komil, kitob, xat, oʻqituvchi.

3-variant: “K” undosh tovushining oʻrnini topish.

Karim, odam, tilak, daftar.

Bu didaktik oʻyinlar bevosita oʻqituvchi rahbarligida barcha oʻquvchilarning ishtirokida kompyuter texnologiyasidan foydalanib bajariladi. Mashgʻulotlarning davomiyligi 40 minutga moʻljallangan boʻlib, oʻquvchilarning kompyuter texnologiyasi bilan ishlash tezligi, kompyuter savodxonligini qanchalik oʻzlashtirganligini aniqlash maqsadida ham oʻtkazilishi mumkin.

Oʻquvchilarning faolligini oshirishda, olgan bilimlarini xotirada uzoq saqlanib qolishida kompyuterli oʻyinlarning roli kattadir. Kompyuterli oʻyinlar oʻquvchilarning qiziqishini orttirib borishida oʻziga xos xususiyatga ega. Ana shunday kompyuterli oʻyinlardan didaktik oʻyinlaridir. Bu didaktik oʻyinlarni oʻtkazish uchun uning maqsad va vazifalari belgilab olinadi. Shu belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun multimediali texnologiyadan foydalanib amalga oshiriladi.

Kompyuterni elektr tarmogʻiga ulab, dars jarayoni boshlanguncha foydalanishga tayyorlab qoʻyiladi va dars mavzusini yanada chuqurroq oʻrganish maqsadida oʻqituvchi kompyuterga murojaat qiladi. Buning uchun kompyuter xotirasidan **“DARS”** nomli fayl chaqirib olinadi. Kompyuter monitorida **“DARS”** degan yozuv chiqadi va oʻqituvchi oʻquvchilarga **“yenter”** yozuvi bor klavishni boishni topshiradi. Kompyuter ekranida didaktik oʻyinlar, ularning ahamiyati, didaktik oʻyinlarning nomlari va ularning qisqacha mazmuni, unga mos turli xil rasmlar paydo boʻla boshlaydi. Ularning ketma – ketligi quyidagicha boʻladi: “Oʻyla, izla top”, “Joʻjachalar”, “Joʻjachalar suhbatini toping”, “Jimjitlik” tarzida kiritilgan

Yuqoridagi ko'rsatilganlardan qaysi mavzu kerak, kompyuter tarkibidagi "Sichqoncha" yordamida o'sha tushunchani belgilab olish mumkin va keyin "Sichqoncha" bosilishi bilan kompyuter monitorida o'sha tushuncha haqida to'liq ma'lumot chiqadi. Ular tushunchaga oid matn, uning mazmuni, tarbiya jarayonidagi ahamiyati hamda rasmlardan iborat bo'ladi. Masalan, o'quvchilarga "Sichqoncha" yordamida "O'yla, izla, top" yozilgan qatorni belgilab "Sichqoncha"ni bosish vazifasi beriladi, bunda kompyuter ekranida quyidagi ma'lumotlar paydo bo'lishi bilan bir qatorda, unga parallel holatda "O'yla, izla, top"ni aks ettiruvchi video lavhalarlar, fotosuratlar, musiqiy ohang bilan kompyuter ekranida ko'rinib turadi.

O'qituvchi kompyuter qarshisida o'tirgan o'quvchilarni oltita guruhga bo'lib, nima qilish zarurligini tushuntiradi va qaysi guruh birinchi bo'lib berilgan topshiriqni to'g'ri bajarsa, o'sha guruh g'olib bo'lishini aytadi. Bir vaqtning o'zida bajarishga ruhsat beradi.

Birinchi guruh: Bu guruh o'quvchilariga "A" harf qarshisida turgan qizchaning ismini topish vazifasi topshiriladi. U qizchaning ismi "A" harfi bilan boshlanadi. 6 ta katakcha berilgan bo'lib, "A" harfi bilan boshlanadigan 6 ta harfni to'g'ri joylashtirsa, o'sha qizchaning ismi kelib chiqishi tushuntiriladi.

Ikkinchi guruh: Bu guruh o'quvchilarining diqqatini "L" harfi yonida turgan qizchaning rasmiga e'tibor berish lozimligi aytiladi. Bunda ham yuqoridagi katakchalarga "L" harfi bilan boshlanadigan va oltita harfdan iborat bo'lgan qizchaning ismini topib katakchalarga to'g'ri joylashtirish.


Uchinchi guruh: Bu guruh a'zolarining diqqati "M" harfi yonida turgan qizchaning rasmiga qaratiladi. Yuqorida berilgan katakchaga "M" harfi bilan boshlanadigan va oltita harfdan iborat bo'lgan so'zni katakchalarga to'g'ri joylashtirish.


To'rtinchi guruh: Bu guruh a'zolari bo'lgan o'quvchilarning diqqati "I" harfi yonida turgan qizcha rasmiga e'tibor qaratiladi. Bunda ham "I" harfi bilan boshlanadigan va oltita harfdan iborat bo'lgan qizchaning ismini topib, katakchalarga to'g'ri joylashtirish.

Beshinchi guruh: Bu guruh o'quvchilarining diqqati "J" harfi yonida turgan qizchaning rasmiga e'tibor qaratiladi va "J" harfi bilan boshlanadigan, oltita harfdan iborat bo'lgan qizchaning ismini topib katakchalarga to'g'ri joylashtirish.

Oltinchi guruh: Bu guruh o'quvchilarining diqqati oxirgi "A" harfi yonida turgan qizchaning rasmiga e'tibor qaratiladi. Bu qizchaning ismi ham "A" harfi bilan boshlanishi aytiladi. Bu ism ham oltita harfdan iborat, "A" harfdan boshlanadi, ismni topib, katakchalarga to'g'ri joylashtirish.


O'YLA, IZLA, TOP





- 24 -

Jimjitlik o'yini



Dars mashg'uloti musobaqa tarzida o'tkaziladi. G'olib chiqqan guru a'zolari rag'batlantiriladi. Bu bilan o'quvchilarning harflarni o'zlashtirganliklari to'g'risidagi bilimlari aniqlanadi, ziyrakligi, xotirasi, topqirligi tekshirib ko'rish maqsadida o'tkaziladi. Xuddi shunday har bir berilgan rasmlar orqali dars mashg'ulotlarini tashkil etish mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan didaktik o'yinlarni kompyuter orqali tashkil qilish, birinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompyuter savodxonligini oshirib borib, takomillashtirishga xizmat qiladi, ikkinchidan, o'quvchilarning harflarni puxta o'zlashtirishlari va yozish ko'nikma va malakalarini shakllantirishni, uchinchidan, lug'at boyligini yanada kengaytirishga yordam beradi

Xulosa

Mamlakatimizda ijtimoiy sohadagi o'zgarishlar va intellektual salohiyatning oshib borishi zamonaviy bilimlarning egallanishiga turtki bo'ladi. Ta'lim-tarbiya sohasidagi innovasion o'zgarishlar va ularni zamonamizning yangi ilg'or talablariga javob beradigan darajaga olib chiqish muhim vazifa va maqsadlardan biridir. Bu borada "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning qabul qilinishi va to'plangan tajribani tahlil qilish, umumlashtirish asosida mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishga e'tibor qaratilmoqda.

Pedagogik tadqiqotlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish har qachongidan ham dolzarb bo'lib, ular yordamida o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasida ma'lum bir yutuqlarga erishiladi. Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda halqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim olishlariga bog'liq.

Shunday ekan, axborot kommunikasion vositalar bilan ishlash hozirgi zamon davr talabi hisoblanadi. Axborot kommunikasion vositalardan o'qitish jarayonlarida foydalanish uning sifatini va samarasini oshiradi, o'rganuvchiga qulay sharoit yaratadi.

Prezidentimiz I.A.Karimov tashabbusi bilan jamiyatning barcha jabhalari, xususan, ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanishni yo'lga qo'yishga qaratilayotgan e'tibor samarasi o'laroq, bugun jamiyatning barcha sohalari va halqimiz turmush tarziga kompyuter texnologiyalari chuqur kirib borayapti.

Jamiyat hayotiga kompyuterning keng miqiyosda kirib kelishi fuqarolarga axborot olishga bo'lgan imkoniyatlar eshigini ochib berdi.

Tobora shakllanib borayotgan kompyuter texnologiya axborotni yetkazish va qabul qilishda yangi munosabatlarni vujudga keltiradi, fikrlashning yangi turini hosil qiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan axborot vositalaridan multimedia texnologiyasi alohida ahamiyatga egadir.

Multimedia "Inson-kompyuter" interaktiv (dialogik) muloqotning yangi takomillashgan pog'onasi bo'lib, bunda foydalanuvchi juda keng va har taraflama axborot oladi. Multimedia vositalari asosida o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish hozirgi kunning dolzarb masalasidandir.

Shuningdek, metodik tavsiyanomada multimedia vositalari, uning mazmun-mohiyati, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilan olib boriladigan dars mashg'ulotlarida multimediali texnologiyalardan foydalanish metodikasi, multimediali didaktik o'yinlardan foydalanish usullari, tavsiyalar, amaliy ma'lumotlar qamrab olgan.

Mazkur metodik tavsiyanomaning asosiy maqsadi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga multimedia vositalari bo'yicha keng nazariy bilimlar berish orqali yosh pedagog kadrlarning faoliyatini samarali tashkil etish va o'sib kelayotgan yosh avlodni intellektual salohiyatli hamda faol shaxs qilib tarbiyalash uchun zamin yaratish, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, aqliy, axloqiy xislatlarini shakllantirishga ko'maklashishdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. T.: O'zbekiston, 1994. –b. 9.
2. Karimov I.A. Yuksak salohiyatli avlodni tarbiyalash – eng muqaddas maqsad. Toshkentda 16-17-fevral kunlari bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyada so'zlagan nutq // Xalq so'zi, 2012. 18-fevral.
3. O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq, 1998. –b. 57.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganligining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan “O'zbekiston Konstitusiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatni barpo etishda mustahkam poydevordir” mavzusidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 2009. 6-dekabr.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori-T.: “Sharq”, 1997, 57-bet.
6. Kollektiv. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. Darslik, T.: 1974.
7. Kollektiv. Oila pedagogikasi. T.: 1974.
8. Musurmonova O. Oila ma'naviyati-milliy g'urur. T.: O'zbekiston. 2000.
9. Safo O. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. T.: O'qituvchi. 1997.
10. Sog'lom avlod - O'zbekiston kelajagi. O'zbekiston Bolalar jamg'armasi nashri. T.: O'zbekiston. 2001.
11. To'raqulov X.A. Zamonaviy kompyuter tarmoqlari bo'yicha multimediali elektron o'quv qo'llanma yaratish texnologiyasi //Uzluksiz ta'lim. 2011.
12. Inson huquqlari to'g'risida xalqaro bitimlar to'plami. T.: Adolat. 1992.
13. Uzluksiz ta'lim jurnali. 2002 yil 2-son, 2004 yil 6-son, 2005 yil 2-son, 2006 yil 4-son, 2008yil 6-son.
14. Tayloqov N.I., Olimov A.F. Elektron darsliklar o'qitish faoliyatining zamonaviy vositasi sifatida halq ta'limi, 2009 yil 1-son 49-bet.

15. Begmatova H. Bog'cha bolalarida multimedia texnologiyasi tushunchalarini shakllantirish halq ta'limi 2010 yil 2-son.
16. Adilova S. Multimedia vositalari va uni ta'lim jarayonida qo'llash // Pedagogik ta'lim. 2001 yil 2-son
17. Xalq ta'lim jurnali. 2005 yil 2-son, 2009 yil 1-son, 2010 yil 2-3-sonlar.
18. Hasanboyev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. T.:Fan va texnologiya, 2009.-b.348.
19. Ashurova A.I. "Axborot tizimlarini loyihalash "fanidan dasturiy qobiq yaratish va ta'limda foydalanish pedagogikasi. Avtoreferat kand. disser. T.:2009 yil
20. Ta'lim menejmenti jurnali. 2011 yil 1-son
21. G'afforova T., Nurillayeva Sh., Haydarova O. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar. Toshkent. 2004.14-b.

